

O'QUV KURSI TINGLOVCHILARIDA INGLIZ TILINI INTENSIV O'QITISH ORQALI LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY ASOSLARI

Tolibova Gulnoz Rustamovna,

UzDJTU katta o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0007-6007-6604>

Annotasiya. Ushbu maqola o'quv kursi til o'rganuvchilar ingliz tilini intensiv o'qitish jarayonida lingvistik kompetensiyani shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Intensiv ta'lim sharoitida til o'rganuvchilarning fonetik, leksik, grammatik va nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar hamda innovasion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, kommunikativ yondashuv, multimodal ta'lim muhiti, ergonomik muhit va interaktiv usullarning lingvistik kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni asoslanadi. Maqolada intensiv o'qitish jarayonida til o'rganuvchilarning til faolligini oshirish, nutqiy to'siqlarni bartaraf etish hamda amaliy til kompetensiyalarini shakllantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: intensiv ta'lim, lingvistik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, ingliz tili, multimodal muhit, ergonomik ta'lim, interaktiv metodlar, chet til o'qitish.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические основы формирования языковой компетенции в процессе интенсивного обучения английскому языку изучающих язык. Подчеркивается важность методик и инновационных педагогических технологий для развития фонетических, лексических, грамматических и речевых навыков изучающих язык в условиях интенсивного обучения. Также рассматривается роль коммуникативного подхода, мультимодальной образовательной среды, эргономичной среды и интерактивных методов в развитии языковой компетенции. В статье изложены рекомендации по повышению языковой активности изучающих язык, устранению речевых барьеров и формированию практических языковых компетенций в ходе интенсивного обучения.

Ключевые слова: интенсивное обучение, языковая компетенция, коммуникативная компетенция, английский язык, мультимодальная среда, эргономичная среда, интерактивные методы, обучение иностранному языку.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical foundations of developing language competence during intensive English language instruction for language learners. It emphasizes the importance of methods and innovative pedagogical technologies for developing the phonetic, lexical, grammatical, and speech skills of language learners in intensive learning settings. It also examines the role of a communicative approach, a multimodal educational environment, an ergonomic environment, and interactive methods in developing linguistic competence. The article provides recommendations for increasing language learners' language activity, eliminating speech barriers, and developing practical language competencies during intensive learning.

Keywords: intensive learning, language competence, communicative competence, English, multimodal environment, ergonomic environment, interactive methods, foreign language teaching.

Kirish. Globallashuv jarayonlari, xalqaro akademik hamkorlik va raqamli kommunikasiya muhitining kengayishi xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Bugungi kunda ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki ta'lim, ilm-fan, texnologiya va biznes sohalarida yetakchi kommunikasion instrument sifatida namoyon bo'lmoqda, shu sababli turli yoshdagi til o'rganuvchilar uchun qisqa vaqt ichida yuqori natija beruvchi intensiv o'qitish

texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'quv kurslari sharoitida ta'lim olayotgan katta yoshdagi tinglovchilarda ingliz tilini amaliy jihatdan samarali o'zlashtirish uchun lingvistik kompetensiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvistik kompetensiya tilning fonetik, leksik va grammatik tizimini anglash hamda ulardan nutqiy muloqot jarayonida to'g'ri foydalanish qobiliyatini anglatadi va mazkur kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, til o'rganuvchilarning nutqiy faoliyati samaradorligini ta'minlaydi.

Intensiv o'qitish sharoitida vaqt cheklanganligi sababli o'qitish jarayoni yuqori darajada maqsadli, tizimli va texnologik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi talab etiladi. Bunday sharoitda kommunikativ yondashuv, interaktiv usullar, multimodal ta'lim vositalari va ergonomik muhitdan foydalanish lingvistik kompetensiyani shakllantirishning muhim amaliy omillaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy til ta'limida lingvistik kompetensiya tushunchasi turli olimlar tomonidan turli xil nuqtai nazardan tahlil qilingan. Zamonaviy til ta'limi nazariyasida lingvistik kompetensiya tilni amaliy muloqot vositasi sifatida qo'llash qobiliyati bilan uzviy bog'liq holda qaraladi. Amerikalik tilshunos Noam Chomsky lingvistik kompetensiyani inson ongida mavjud bo'lgan til tizimi haqidagi ichki bilimlar sifatida talqin qiladi. Tilshunos olimning fikricha, inson cheklangan grammatik qoidalar orqali cheksiz miqdordagi gaplarni tuzish imkoniyatiga ega. Uning nazariyasida kompetensiya va *performans* tushunchalari alohida ajratiladi. Kompetensiya – til haqidagi ichki bilim bo'lsa, *performans* – ushbu bilimning nutq jarayonida amaliy namoyon bo'lishidir. Biroq keyinchalik Amerikalik sosiolingvist olim Dell Hymes mazkur nazariyani tanqid qilib, tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy muloqot vositasi sifatida o'rganish lozimligini ta'kidlaydi. Olim kommunikativ kompetensiya tushunchasini ilgari surib, til o'rganuvchi nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri, balki kommunikativ jihatdan maqbul nutq yarata olishi kerakligini asoslab berdi. Kanadalik tilshunos olim Michael Canale va Merrill Swainlar tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya modelida lingvistik kompetensiya asosiy tarkibiy qism sifatida belgilangan. Ular grammatik, sosiolingvistik, strategik va diskurs kompetensiyalarining o'zaro integratsiyasi samarali muloqotni ta'minlashini ta'kidlaydilar.

Britaniyalik tilshunos metodist olim Jeremy Harmer chet til o'qitishda til muhiti va amaliy nutqiy faoliyatning ahamiyatini yuqori baholaydi va uning fikricha til o'rganuvchilar grammatik qoidalarni mexanik yodlash orqali emas, balki real kommunikativ vaziyatlarda ishtirok etish orqali samarali o'zlashtiradi. Jack Richards Yangi Zillandiyalik tilshunos olim esa intensiv ta'lim jarayonida kommunikativ vazifalar, task-based activities va interactive learning texnologiyalarining ahamiyatini alohida urg'u beradi. Olimning ta'kidlashicha, til o'qitish jarayonida mashqlar muloqotga yo'naltirilgan bo'lishi talab etiladi.

Rus metodistlari orasida Ye.Passov kommunikativ metodikaning nazariy asoslarini ishlab chiqqan olimlardan biri hisoblanadi. U chet tilni o'qitishda nutqiy faoliyat, muloqot muhiti va motivasiyaning muhimligi asosiy o'rin tutadi. Olimning fikricha, til o'rganish jarayoni tabiiy muloqotga yaqinlashtirilgan holda tashkil etilishi lozim, deya ta'kidlaydi.

Psixolingvist A.Lyontev esa nutqiy faoliyat nazariyasi asosida til o'qitish jarayonini tahlil qilgan. Uning konsepsiyasiga ko'ra, til inson faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, nutqiy harakatlar orqali shakllanadi.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, intensiv til o'qitish jarayonida lingvistik kompetensiyani shakllantirish kompleks va integrativ xarakterga ega bo'lishi lozim, ya'ni tilning fonetik, grammatik va leksik tizimi amaliy muloqot, kommunikativ muhit va interaktiv faoliyat bilan uyg'unlashtirilgan holda o'rgatilishi talab etiladi.

Muhokama va natija. Lingvistik kompetensiya atamasi tilshunoslik va chet til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ilk bor amerikalik tilshunos Noam Chomsky tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan mazkur tushuncha insonning til tizimi haqidagi ichki bilimlarini anglatadi. Keyinchalik Dell Hymes tomonidan kommunikativ kompetensiya nazariyasi ishlab chiqilishi natijasida lingvistik kompetensiya nutqiy faoliyatning muhim komponenti sifatida qarala boshlandi. Zamonaviy chet til o'qitish metodikasida lingvistik kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: fonetik kompetensiya; leksik kompetensiya; grammatik kompetensiya; orfografik kompetensiya; semantik kompetensiya. Fonetik kompetensiya to'g'ri talaffuz, intonasiya va ovoz tizimini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lsa, leksik kompetensiya so'z boyligini anglash va uni muloqot jarayonida to'g'ri qo'llashni nazarda tutadi. Grammatik kompetensiya esa til qoidalarini anglash va ulardan nutqda samarali foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Intensiv ta'lim sharoitida mazkur komponentlarni parallel ravishda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, chunki til o'rganuvchi qisqa vaqt ichida amaliy muloqotga tayyor holatga keltirilishi lozim. Tadqiqot olimlari fikrlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy chet til ta'limida grammatik bilimlarni alohida o'rgatishdan ko'ra, ularni kommunikativ faoliyat bilan integrasiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi ayniqsa, intensiv ta'lim jarayonida til o'rganuvchilarning faol ishtiroki, emosional holati va motivasiyasi ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Psixolog olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, Malcolm Knowles katta yoshdagilar ta'limi (Andragogy) nazariyasi asoschisi, katta yoshdagilarda o'qitish jarayoni hayotiy tajribaga, mustaqillikka va amaliy ehtiyojga tayanadi. Shuning uchun intensiv kurslarda interaktiv va amaliy metodlar samarali hisoblanadi, katta yoshdagi til o'rganuvchilarda kognitiv qabul qilish jarayoni yosh o'quvchilardan farqli o'laroq sust bo'lib, shu sababli intensiv kurslarda vizual, audial va interaktiv usullardan birgalikda foydalanish yuqori natija beradi. Multimodal yondashuv axborotni bir nechta kanal orqali qabul qilish

imkonini yaratib, materialning uzoq muddatli xotirada saqlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, intensiv ta'lim jarayonida nutqiy amaliyot ulushining ko'payishi til to'sig'ini bartaraf etadi va kommunikativ ishonchni shakllantiradi. Bu o'z navbatida lingvistik kompetensiyaning amaliy faoliyat orqali mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

G.A.Kitaygorodskaya o'quv jarayonining intensivlashuvini "ta'lim muvaffaqiyatining miqdoriy ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan jarayon" deb tushunadi. Intensiv til o'qitish metodikasi G.Lozanov, S. Krashen, D. Hymes, R. Mayer va L.Vygotsky kabi olimlarning nazariy qarashlariga tayanadi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini yuqori sur'atda tashkil etish, kommunikativ mashqlar va nutqiy amaliyot ustuvorligi, multimodal vositalar hamda interaktiv usullardan foydalanish orqali til kompetensiyalarini jadal rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv til o'rganuvchilarning til faolligini oshiradi, nutqiy to'siqlarni bartaraf etadi va til materialini tez o'zlashtirish imkonini beradi.

Xorijiy tilni intensiv o'qitishda kommunikativ yondashuv zamonaviy chet til o'qitish metodikasining eng samarali konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi tilni nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy muloqot vositasi sifatida o'rgatishdan iborat bo'lib, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda: real hayotiy vaziyatlar modellashtiriladi; juftlik va guruhli ishlar qo'llaniladi; dialogik va monologik nutq rivojlantiriladi; talabalarning erkin fikr bildirishi qo'llab-quvvatlanadi. Intensiv ta'lim jarayonida kommunikativ yondashuv lingvistik kompetensiyaning tabiiy nutqiy faoliyat orqali shakllantirish imkonini beradi. Masalan, yangi grammatik konstruksiyalar qoida sifatida emas, balki muloqot jarayonida funksional qo'llanish orqali o'zlashtiriladi. Shuningdek, kommunikativ mashqlar til o'rganuvchilarda nutqiy ishonchni shakllantiradi, stress va psixologik to'siqlarni kamaytiradi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari chet til o'qitish jarayonini multimodal shaklda tashkil etish imkonini bermoqda. Multimodal ta'lim muhiti deganda axborotni turli kanallar ya'ni vizual, audial, kinestetik va raqamli vositalar orqali qabul qilishga asoslangan ta'lim muhiti tushuniladi va bu intensiv ingliz tili kurslarida multimodal muhitdan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi. Multimodal yondashuv nazariy jihatdan G.Kress va T. Van Leeuwen tomonidan ishlab chiqilgan multimodallik nazariyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim jarayonida axborotni vizual, audial va verbal kanallar orqali birgalikda taqdim etish o'quvchilarning kognitiv faolligini oshiradi. Shuningdek, Richard Mayerning multimedia orqali o'qitish nazariyasi hamda A.Paivioning ikki kodli qabul qilish konsepsiyasi multimodal ta'limning psixologik asosini tashkil etadi.

Darxaqiqat, xorijiy tilni intensiv o'qitishda ergonomik ta'lim muhiti juda muhim omillardan biri hisoblanib u til o'rganuvchilarning fiziologik, psixologik va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik muhitdir. Bunday muhitda vizual qulaylik, texnik

vositalarning maqbul joylashuvi, interaktiv faoliyat, motivasion atmosfera va kognitiv yuklamani optimallashtirish asosiy omillar hisoblanadi. Intensiv ingliz tili kurslarida ergonomik muhit quyidagi omillarni o'z ichiga oladi: qulay auditoriya va jihozlar; yorug'lik va havo almashinuvining me'yoriy tashkil etilishi; psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi muhit; stresssiz muloqot atmosferasi; raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish. Ergonomik muhit tinglovchilarning diqqatini saqlash, charchoqni kamaytirish va nutqiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Kommunikativ kompetesiyaning leksik komponenti intensiv til ta'limida muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va til o'rganuvchining muloqot samaradorligi uning so'z boyligiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Intensiv kurslarda leksik kompetensiyani shakllantirish uchun quyidagi usullar kontekstual o'qitish ya'ni yangi so'zlar alohida emas balki kontekst asosida o'rgatiladi va bu usul so'z ma'nolarining tabiiy anglashga yordam beradi. Leksik kompetensiyani so'z birikmalar bilan o'rganish nutqning tabiiyligini ta'minlaydi. *Masalan: make a decision; take responsibility; strong argument.*

Darhaqiqat, xorijiy tilni intensive o'qitishda kommunikativ kompetesiyaning leksik komponentini rivojlantirishda visual assotsiatsiyalar ya'ni rasm, video, infografikalar til o'rganuvchilarning yangi so'zlarni eslab qolish jarayonini oshiradi. Shu bilan bir qatorda kommunikativ mashqlar – rolli o'yinlar, munozara va dialoglar leksik birliklarni faol qo'llash imkonini yaratadi. Intensiv o'qitish sharoitida grammatik kompetensiya funksional yondashuv asosida shakllantirilishi lozim, ya'ni grammatik qoidalar alohida nazariy material sifatida emas, balki nutqiy vazifani bajarish vositasi sifatida o'rgatiladi. Masalan, Present simple zamonini o'rgatishda: qoida tushuntiriladi; real hayotiy misollar keltiriladi; juftlik mashqlari bajariladi; muloqotli vazifalar tashkil etiladi.

Bu jarayon grammatik konstruksiyalarni avtomatlashtirishga yordam beradi. Fonetik kompetensiyani rivojlantirishda esa ingliz tilini intensiv o'qitishda talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Noto'g'ri talaffuz kommunikativ muammolarni keltirib chiqaradi. Fonetik kompetensiyani shakllantirishda *shadowing technique, minimal pairs, audio takrorlash, intonasion mashqlar, fonetik treninglar* samarali hisoblanadi. Talaffuzni rivojlantirishda multimedia texnologiyalari alohida ahamiyatga ega. Audio va video materiallar orqali autentik nutq namunasini eshitish til o'rganuvchilarning fonetik ko'nikmalarini yaxshilaydi. Kommunikativ kompetensiyani interaktiv metodlar intensiv ta'lim jarayonida til o'rganuvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Bunday usullar ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi va bular quyidagi interaktiv metodlar lingvistik kompetensiyani shakllantirishda *brainstorming, role play, case study, debate, project-based learning, task-based activities* samarali hisoblanadi. Mazkur usullar nutqiy faollikni oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va tilni amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quv kurslarida xorijiy tilni intensiv ta'lim jarayonida baholash mexanizmi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanib, baholash nafaqat natijani aniqlash, balki o'quvchilarning

rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini ham beradi. Xorijiy tilni intensiv ta'limida *placement test, formative assessment, peer assessment, self-assessment, communicative testing* baholash usullari samarali hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini intensiv o'qitish jarayonida lingvistik kompetensiyani shakllantirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Intensiv ta'lim sharoitida kommunikativ yondashuv, multimodal ta'lim muhiti, ergonomik sharoit va interaktiv metodlardan samarali foydalanish til o'rganuvchilarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Lingvistik kompetensiyaning fonetik, leksik va grammatik komponentlarini uyg'un rivojlantirish intensiv ta'limning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovasion metodlarning qo'llanilishi qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi va intensiv til kurslarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, kommunikativ muhitni rivojlantirish va katta yoshdagi til o'rganuvchilarning amaliy til kompetensiyalarini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 1965.
2. Hymes D. On Communicative Competence. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
3. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
4. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – Pearson Education, 2007.
5. Brown H. Principles of Language Learning and Teaching. – Pearson Education, 2000.
6. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980.
7. Knowles M. *The Modern Practice of Adult Education* (1970)
8. Passov E. Kommunikativ metodika obucheniya inostrannym yazykam. – Moskva, 1991.
9. Kitaygorodskaya G.A. Metodicheskie osnovi intensivnogo obucheniya inostrannim yazykam: monografiya / G.A. Kitaygorodskaya. – M.: Izdatelstvo Moskovskogo universiteta, 1986.
10. Leontyev A. Psixologiya obucheniya inostrannym yazykam. – Moskva, 2003.
11. Safonova V. Kommunikativnaya kompetensiya i sovremennoe yazykovoe obrazovanie. – Moskva, 2004.
12. Shabanov D. Chet til o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent, 2021.